

**MAVZU: OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIM KO'NIKMASINI
SHAKILLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING TAHLILI.**

Abdullayev Axmadjon Ismoil o'g'li
Osiyo Xalqaro Universiteti Magistranti.
axmada792@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda mustaqil ta'lim-bu talabaning o'z bilim olish jarayonini rejalashtirishi, maqsad qo'yishi, kerakli manbalarni mustaqil izlab topishi, amaliy masalalarni hal qilishi va o'z faoliyatini baholay olishi jarayonidir. Asosiy maqsad kritik fikrlaydigan, ijodkor, axborot bilan mustaqil ishlay oladigan mutaxassisni shakllantirish va metodikasi ishlab chiqish ta'lim jarayonida qo'llashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, innovatsion texnologiya, metakognitiv strategiya, refleksiya, loyiha asosida o'qitish, AKT, motivatsiya.

**ТЕМА: АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ
САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ.**

Абдуллаев Ахмаджан Исмаилович.
Выпускник Международного Университета Азии.
axmada792@gamil.com

Аннотация: В данной статье показано, что самостоятельное обучение в высшем образовании-это процесс, с помощью которого студент может планировать свой процесс получения знаний, ставить цели, самостоятельно искать необходимые ресурсы, решать практические вопросы и оценивать свою успеваемость. Основной целью является формирование критически мыслящего, творческого, умеющего самостоятельно работать с информацией специалиста и разработка методики его применения в образовательном процессе.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, инновационные технологии, метакогнитивная стратегия, рефлексия, проектное обучение, ИКТ, мотивация.

**TOPIC: ANALYSIS OF THE TECHNOLOGY OF SHAPING INDEPENDENT
EDUCATIONAL SKILLS IN HIGHER EDUCATION.**

Abdullayev Akhmadzhan Ismailovich.
Graduate Of The International University Of Asia.

Abstract In this article, Independent Education in higher education is the process by which a student can plan their learning process, set goals, independently search for the necessary resources, solve practical issues and evaluate their activities. The main goal is to form a specialist who thinks critically, is creative, can work independently with information, and the development of a methodology is to apply it in the educational process.

Key words: independent education, innovative technology, metacognitive strategy, reflection, project-based training, ICT, motivation.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi global raqobatga mos, mustaqil fikrlaydigan, bilimni mustaqil ravishda izlay oladigan, tahlil va amaliyotga tatbiq eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashni talab qilmoqda. Shuning uchun talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmasini shakllantirish ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Mustaqil ta'lim — bu talabaning o'z o'quv faoliyatini rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi orqali bilimlarni mustaqil o'zlashtirish jarayonidir. Ushbu ko'nikma zamonaviy oliy ta'limda innovatsion texnologiyalar yordamida shakllantiriladi.

XXI asrda ta'lim mazmuni tubdan o'zgarimoqda. Endi bilim hajmini oshirish emas, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, axborotni mustaqil izlab topishi, tahlil qilishi, o'zi uchun zarur bilimni ajratib ola bilishi asosiy maqsadga aylangan. Bu jarayonning markazida esa mustaqil ta'lim ko'nikmasi turadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'limning 70–80 foizi auditoriyadan tashqarida — mustaqil ravishda o'zlashtiriladi. Oliy ta'limda talaba tayyor bilimni emas, balki bilim olishning usul va strategiyalarini o'rganishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston ta'lim tizimi ham “talabaga yo'naltirilgan ta'lim”, “kompetensiyaviy yondashuv”, “aralash ta'lim” kabi tamoyillar asosida rivojlanib bormoqda. Bu jarayonda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ilmiy asoslab, ta'limga tatbiq etish zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish talabaning nafaqat bilim olish faoliyatini, balki uning shaxsiy rivojlanishini, intellektual salohiyatini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Talaba mustaqil o'rgangan sari unda izlanish, tahlil qilish, muammolarni hal etish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyati shakllanadi. Bu esa kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatning poydevorini mustahkamlaydi.

Zamonaviy oliy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlaydigan texnologiyalar — masofaviy ta'lim, aralash ta'lim (blended learning), teskari sinf (flipped classroom), loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim (problem-based

learning), AKT va raqamli resurslardan foydalanish kabi metodlar bilan boyitilmoqda. Mazkur texnologiyalar talabani individual o'rganish ritmini ta'minlaydi, o'quv jarayoniga erkinlik va mustaqillik olib kiradi hamda o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantiradi.

Shuningdek, mustaqil ta'limning samaradorligi talabani shaxsiy faolligi, motivatsiyasi, mas'uliyati va o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishga bo'lgan intilishiga bevosita bog'liqdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchining roli nazoratchi emas, balki yo'naltiruvchi va maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi. Talaba esa o'z o'quv faoliyatining subyekti sifatida faol ishtirok etadi.

Natijada, mustaqil ta'lim ko'nikmasi shakllangan talaba o'z ustida ishlay oladigan, zamon bilan hamnafas, yangiliklarga ochiq va doimiy rivojlanishga intiluvchi mutaxassis sifatida voyaga yetadi. Mustaqil ta'limni samarali shakllantirish uchun, avvalo, talabani o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyat hissini kuchaytirish, o'z o'rganish jarayonini ongli ravishda boshqara olishiga sharoit yaratish zarur. Buning uchun ta'lim jarayonida talabalarga o'z-o'zini baholash, refleksiya yuritish, o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beruvchi topshiriq va metodlar qo'llaniladi. Talabani o'zi tomonidan qo'yilgan maqsadlar va ularni amalga oshirish strategiyasi mustaqil ta'limning asosiy poydevori hisoblanadi.

Shuningdek, mustaqil ta'limni tashkil etishda samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim o'rin tutadi. Jumladan, muammoli vaziyatlar asosidagi topshiriqlar talabani izlanish faolligini oshiradi; loyiha asosida o'qitish texnologiyasi esa talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirib, nazariy bilimlarni real hayotga tatbiq etishga imkon yaratadi. Teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi esa ta'lim jarayonida talabani mustaqilligini yanada kuchaytiradi, chunki u darsga tayyor holda kelishi, materialni oldindan mustaqil o'rganishi va dars jarayonida chuqur muhokamalarda ishtirok etishi talab etiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish ham mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, videodarslar, raqamli kutubxonalar, virtual laboratoriyalar talabani mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli resurslar orqali talabalar istalgan vaqt va joyda o'qish, takrorlash, qo'shimcha manbalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchining faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi talabani faol o'quv subyekti sifatida shakllanishiga yordam beruvchi metodik ko'rsatmalarni beradi, yo'naltiradi, maslahat beradi, ammo uning o'rnini bosmaydi. O'qituvchining vazifasi talabani mustaqil fikrlash, izlanish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan muhit yaratishdan iborat.

Shu bilan birga, mustaqil ta'limni rivojlantirishda refleksiya jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba bajarilgan ishlar bo'yicha o'z xulosalarini chiqarishi,

natijalarni baholashi, qaysi jihatlar samarali chiqqanini va qaysi jihatlarni rivojlantirish zarurligini tushunib olishi lozim. Refleksiya talabani o'z-o'zini anglashini kuchaytiradi va kelajakdagi o'rganish strategiyalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Natijada, mustaqil ta'lim ko'nikmasi rivojlangan talaba o'zining kasbiy va shaxsiy hayotida muntazam ravishda yangilanib boradigan, zamonaviy axborotlarni mustaqil izlaydigan, ulardan oqilona foydalanadigan va o'z faoliyatini strategik rejalashtira oladigan mutaxassisga aylanadi. Bu esa raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda zamonaviy oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligi talabani individual o'quv strategiyalarini shakllantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Har bir talabani o'rganish uslubi, axborotni qabul qilish tezligi, tahlil qilish darajasi va motivatsiya manbalari bir-biridan farq qilgani uchun mustaqil ta'limni tashkil etishda differensial yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida o'qituvchi talabalarni o'ziga xos o'quv strategiyalarini tanlashga undaydi, ularga individual rivojlanish yo'llarini belgilashda metodik ko'mak ko'rsatadi.

Bundan tashqari, mustaqil ta'limni rivojlantirishda o'quv topshiriqlarining mazmuni va murakkablik darajasini to'g'ri belgilash muhimdir. Juda oson topshiriqlar talabani intellektual qiziqishini pasaytiradi, juda murakkab vazifalar esa uni charchatib, motivatsiyasini susaytirishi mumkin. Shu sababli, mustaqil ishlar bosqichma-bosqich murakkablashib borishi, talabani bilim darajasi va imkoniyatiga mos kelishi zarur. Bu yondashuv ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlaydi hamda talabani o'z kuchiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Mustaqil ta'limning yana bir muhim jihati — bu talabani axborot sohasidagi savodxonligini rivojlantirishdir. Zamonaviy raqamli davrda axborot oqimi nihoyatda kuchli bo'lib, unga tanlab yondashish, ishonchli va noto'g'ri manbalarni ajrata olish ko'nikmasi har bir talabada shakllanishi lozim. Talaba nafaqat axborotni topishi, balki uni tahlil qilish, solishtirish, unga tanqidiy yondashish va eng muhimi — uni amaliyotga qo'llay olishni o'rganishi kerak. Axborot bilan ishlash madaniyati mustaqil ta'limning asosiy tayanch omillaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy manbalar, elektron bazalar, kutubxonalar, raqamli platformalar va ochiq ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Talabalarga JSTOR, ScienceDirect, Google Scholar kabi xalqaro bazalardan foydalanish yo'lga qo'yilayotgani ham mustaqil ta'lim samaradorligini kuchaytiradi. Bunday resurslar bilan ishlash talabalarning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi, ularni ilmiy izlanishlarga jalb qiladi va ilmiy madaniyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim jarayonining samarali kechishi uchun ta'lim muhiti ham muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida ochiq, erkin fikrlash, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish talab etiladi. Talabalarning

tashabbuslari rag‘batlantirilsa, ularga yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish imkoniyati berilsa, mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi. Bu esa o‘z navbatida ijodiy fikrlaydigan, kelajakda jamiyat rivojiga hissa qo‘sha oladigan mutaxassislarni shakllantiradi.

liy ta’lim samaradorligi talabaning mustaqil ta’lim ko‘nikmasini qay darajada egallaganiga bevosita bog‘liqdir. Mustaqil ta’limni tashkil etish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni, AKT vositalarini, muammoli va loyihaga asoslangan yondashuvlarni tatbiq etish talabada ijodiy fikrlash, analitik yondashuv, o‘z-o‘zini baholash, metakognitiv strategiyalar kabi eng muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etish — bu nafaqat talaba bilimiga, balki uning kelajak kasbiy faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadigan murakkab pedagogik jarayondir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. B.X.Shaymatov, B.S.Abdullaeva, M.Q.Jo‘raev, “Elektr mashinalari”, Buxoro: BMTI, 2022 y.-209 b.
2. M.Q.Jo‘rayev, F.J.Xudoynazarov “Elektr mashinalari” fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari Maqola. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190
3. Jo‘rayev M. Q. ”Oliy ta’lim muassasalarining elektr energetika yo‘nalishi talabalariga elektr mashinalari fanini hozirgi kunda o‘qitish tahlili”. Toshkent 2021 1–son 18 bet
4. Jo‘rayev M. Q. “Elektr yuritmalari tezligini rostlash usullari” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Buxoro 2021, № 5 114 bet
5. Development of teaching methods in the field of "electrical machines" using new pedagogical technologies 1Jo‘rayev M. K, 2Husenov D. R, 3Sharopov F.K. International Engineering Journal For Research & Development 584-586 p
6. Jo‘rayev, M. Q., & Xudoynazarov, F. J. (2021). “Elektr mashinalari” fani Taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1184-1190. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190 bet
7. Jurayev Mirjalol Kahramonovich “Software analysis of electric machine science” ISSN:2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022 143P a g
8. Jo‘rayev Mirjalol Qahramonovich “ELEKTR ENERGIYASINI EKSPLUA-TATSIYA QILISHDA TRANSFORMATORLARNING AHAMIYATI” “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
9. Жўраев М.Қ. Электр юритмалар тезлигини ростлаш усуллари Педагогик маҳорат Илмий-назарий ва методологик журнал Бухоро 2021, №23, 114-118 б,(13.00.02)
10. Jo‘rayev M. Q. Scientific methodical bases of the science of electric machines academia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol.12, Issue 09, September 2022 SJIF 2022=8.252 A peer reviewed journal <https://www.indianjournals.com>
11. Jo‘rayev M. Q. Ilmiy konferensiya “Elektr mashinalari fanini o‘qitish didaktik takomillashtirish jihatlari” INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCES AND HUMANITIES International scientific-online

- conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA
<https://zenodo.org/record/7146065>
- 12.Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya "Elektr mashinalari fani rivojlanish ginezisi va mazmuni" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCESAND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA
<https://zenodo.org/record/7146065>
- 13.Jorayev Mirjalol Kahramonovich OPINIONS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS IN TEACHING THE SCIENCE OF ELECTRIC MACHINES 76-80 British Journal of Global Ecology and Sustainable Development
<https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/317> ISSN (E): 2754-9291
- 14.Джураев Мирджалал Кахрамонович, Камалов Камал Малик угли «Синхронные машины», инновационные методы в обучении <http://www.ijaretm.com/> ISSN:2349-0012
- 15.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich,Jafarov Sobir Talab o'g'li, Nizomov Nozimjon Zafar O'g'li, Kamolov Kamol Malik o'g'li "Qadoqlash sexidagi qo'llanilgan elektr yuritmani boshqarish blokini takomillashtirish orqali maxsulot namligini mo'tadil saqlash"
<https://wordlyknowledge.uz/> ISSN : 2181-4341
- 16.Жўпаев М.Қ., Software Analysis of Electric Machine Science, Research Jet Journal of Analysis and Invertions IF-7.6,
<https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/414> ISSN 2776-0960
- 17.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Jafarov Sobir Talab o'g'li "Methodology of teaching experimental work, organization of independent work in technical higher education institutions <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/192>
- 18.Jo'rayev, M. Q., Rashidov, H. H., & Murodov, A. O. (2023). Texnika oliy ta'lim muassalarida fanlarning amaliy ko'nikmalarni oshirishning qiyosiy tahlillari. Innovative development ineducational activities, 2(21), 4–11.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10138064>
- 19.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Po'latov Bexruz Zafarovich, Ravshanov Abbas Yashin o'g'li,Rashidov Hamrozbek Hayotovich International conference pedagogical reforms and their solutions VOLUME1, ISSUE2, 2024
<https://worldlyjournals.com/index.php/PRS/article/view/860>
- 20.Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Rashidov Hamrozbek Hayotovich "Elektrotexnika va elektronika" fanini o'qitisha zamonaviy pedagogik texnologiyalari tahlili. ISSN 2181-4341. VOLUME 8, ISSUE 2, MARCH, 2024
<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/1312>